



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-avgust

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 3805,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 130,4 % ni tashkil etdi.
- Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (37,2 %) tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3805,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (37,2 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globalashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2018 yil yanvar- avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (130,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar moliyaviy xizmatlar (121,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,6 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %

Savdo xizmatlari	37,2 %
Transport xizmatlari	19,6 %
Moliyaviy xizmatlar	9,7 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7,7 %
Shaxsiy xizmatlar	6,7 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,5 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,2 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1 %
Boshqa xizmatlar	2,5 %
Ijara xizmatlari	2,2 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1,9 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,8 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	0,9 %

Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28